

Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarda joriy ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha

№ 49-sonli SHARTNOMA

“ 15 ” avgust, 2022 yil

Furkat tumani

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yurituvchi "TILLO-TEPA QURILISH MONTAJ" MCHJ (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan raxbari O.Xusanov birinchi tomon va ikkinchi tomon O'zbekiston Respublikasi Konunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Furkat tumani "Xalq ta'limi bo'limi" nomidan (kelgusida "buyurtmachi" deb ataladi) raxbari M.Ortiqov o'rtalarida tanlov asosida shakllangan va loyixa smetaga asosan kuyidagi maksadlarda tuziladi:

1.SHARTNOMA PREDMETI.

1.1 «Pudratchi» «Buyurtmachi»ga o'zaro kelishuv asosida nuqson dalolatnomalari va loyixa-smeta xujjatlariga ko'ra quyidagi turdagi joriy ta'mirlash ishlarini bajarib beradi.

29-sonli umumta'lim maktabi binosi joriy ta'mirlash ishlarini 2022 yil iyul oyidagi 129710-sonli lotga asosan nuksonlar dalolatnomasi buyicha bajarib berish:

2. SHARTNOMANING BAXOSI.

2.1 Mazkur shartnomaning umumiy qiymati 9 950 000 (To'qqiz million to'qqiz yuz ellik ming) so'mni tashkil qiladi. QQS (1 297 826.08) so'mni tashkil qiladi.

2.2 Bajariladigan joriy ta'mirlash ishlarini xususiyatidan kelib chiqib, tegishli xujjatlar rasmiylashtiriladi va o'zaro kelishuviga asosan ushbu shartnomaga ilova qilinadi

2.3 Joriy ta'mirlash ishlarini bajarish muddati 8 (sakkiz) kun

3. XIŞOB-KITOB KILISH TARTIBI

3.1. Bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun xisob-kitob smetada ko'rsatilgan narxlarda, xar oyda bajarilgan ishlar dalolatnomasi, schet-faktura va boshqa tegishli xujjatlar rasmiylashtirilib "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilinib olingandan so'ng to'lov jadvali bo'yicha amalga oshiriladi. Kelishilgan narxlarning shakllanishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan joriy ta'mirlash ishlarini smetasi yoki kalkulyasiya va baholar preyskurantlari asos bo'lib xisoblanadi. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish va taftish ishlar natijasida bajarilgan joriy ta'mirlash ishlarida xato va kamchiliklar topilsa, xato va kamchiliklar ushbu fark «Pudratchi» hisobidan qoplanadi.

3.2 «Buyurtmachi» oldindan 30% miqdorida tulovni amalga oshiradi xamda to'liq xisob-kitobni «Pudratchi» joriy ta'mirlash ishlarini bajargandan so'ng 70% to'lovini amalga oshiradi.

4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI:

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan tulov amalga oshirilgan kundan boshlab 3 kun muddat ichida "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar "8" kun muddat ichida yakunlanishi shart.

4.2 «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi kurilish koidalari va me'yoriy talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3 «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yongin xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNI XUKUK VA MAJBURIYATLARI.

5.1 «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini to'lik xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2 «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa smeta xujjatlariga mosligini va sifatini nazorat kilib boradi.

5.3 «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi» ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar buyicha tuzilgan SHakl-2 dalolatnomalarini kabul kilib oladi.

5.4 Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniklangan takdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda «Pudratchi» ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablagi va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi.

6. JARIMALARNI QO'LLANILISHI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni to'lik qoplaydi.

6.2 Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bulgan joriy ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatini 0.5% miqdorida xar bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.

6.3 «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa, to'lanmagan summaning 0,4% miqdorida xar bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi» ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablaglar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. SHartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi xamda butlashdagi mol-mulk berilmagan bo'lsa, aybdor taraf 20% miqdorida jarima to'laydi.

7. FORS-MAJOR XOLATLARI:

7.1 Agar ushbu shartnoma buyicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshqa engib bulmas kuch xolatlar natijasida kelib chiksa tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

7.2. SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yohud nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olinishini kafolatlaydi.

8. QO'SHIMCHA SHARTLAR:

8.1 Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmasa **iqtisodiy** sudi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibida xal kilinadi.

8.2 SHartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi konun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor kilish mumkin.

8.3 Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab **2022 yil "31" dekabrgacha** amal qiladi. SHartnoma ikki tomonlama imzolanih, g'aznachilik bo'linmasidan ruyxatdan o'tkazilgandan sung qonuniy kuchga kiradi.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

«Xizmat ko'rsatuvchi»

"TILLO-TEPA QURILISH MONTAJ" MCHJ

(Xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Furqat tumani

Tillo-tepa qishlog'i

Tel./faks :90 570 03 44

h/v: 20208000200302045001

Bank nomi: Toshkent shaxar Qishloq qurilish bank bosh amaliyot boshqarmasi

MFO : 01037 STIR: 302874668

OKONX: 61110

«Iste'molchi»

Furqat tumani Xalq ta'limi bo'limi

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Furqat tumani

YAngi qishlog'i Anxor ko'chasi 10-A uy

Tel./faks 73-54-91-430

sh/h: 100022860302387092100075039

byudjetdan mablag' oluvchi STIRi: 200201654

OKONX: 92310

G'azna h/v :23402000300100001010

Bankning nomi.Markaziy Bank Toshkent sh.BB XKKM.

MFO: 00014 G'aznachilik STIRi: 201122919

Furqat tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi.

Rahbar: M.Ortiqov

(F.I.SH)

Rahbar: A.Q. Xusanov

(F.I.SH)



(imzo)

(imzo)





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
FURQAT TUMAN ADLIYA BO'LIMI
YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

151700, Furqat tumani, Mevazor ko'chasi, 20-uy,
Tel.: (99873) 549 12 47, el. pochta: furqat-turmarkaz@adliya.uz

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA

15.08.2022 yil

Furqat tumani

1.Loyihaning turi

Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Furqat tumani Xalq ta'limi bo'limi ("Buyurtmachi") va "Tillo tepa qurilish montaj" MCHJ ("Pudratchi") o'rtasida tuzilgan 9 950 000 (to'qqiz million to'qqiz yuz ellik ming) so'm miqdoridagi "Byudjetdan mablag' oluvchi muassalarda joriy ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha" 49-sonli shartnoma

3. Loyiha ishlab chiqilgan va kiritilgan sana: Taraflar o'rtasida 2022 yil 15 avgust kuni ishlab chiqilgan va 2022 yil 15 avgust kuni markazga taqdim qilingan.

4. Loyiha bo'yicha taklif va (yoki) e'tirozlar:

Furqat tumani Xalq ta'limi bo'limi ("Buyurtmachi") va "Tillo tepa qurilish montaj" MCHJ ("Pudratchi") o'rtasida tuzilgan "Byudjetdan mablag' oluvchi muassalar(29-sonli umumiy ta'lim maktabi)da joriy ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha" 49-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

O'rganish natijalari bo'yicha ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik Kodeksi" va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilganligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

XULOSA

Furqat Xalq ta'limi bo'limi tomonidan taqdim qilingan 49-sonli shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi, yuqoridagilarga asosan mazkur shartnoma loyihasini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq.

Furqat tuman YuXKM
bosh yuriskonsulti



N.Uzaqov

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Фуркат тумани ХТБ мудирининг

комиссия раиси :  М.Ортиқов

“ 15 ” август 2022 йил

Фуркат тумани Халқ Таълими бўлими тасарруфидаги 29-сонли мактаб биносининг жорий таъмирлаш ишларининг амалга ошириш учун 2022 йил бюджетдан (ШХР 100022860302387092100075039) ажратилаётган маблағларни мақсадли ва оқилона сарфланишининг таъминлаш мақсадида танлов ўтказиш бўйича харид комиссиясининг йиғилиш

БАЁНИ № 17

Қатнашдилар:

Комиссия раиси --- М.Ортиқов Фуркат тумани ХТБ мудирининг,

Комиссия аъзолари --- Д.Умурзақов ХТБ мудирининг ўринбосари,

Ж.Юлдашев Фуркат тумани ХТБ бош муҳандиси,

А.Тошқўзиев Фуркат тумани ХТБ бош ҳисобчиси,

А.Усмонов товар моддий қийматликлар бўйича ҳисобчи.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги ЎРҚ -684 сонли “Давлат харидлари тўғрисидаги” ги қонунига мувофиқ 2022 йил 8 июль 2022 йил куни энг яхши таклифларни танлашга жойлаштирилган лот № 129710 рақамли Фуркат тумани ХТБ тасарруфидаги 29-сонли мактаб биносининг жорий таъмирлаш ишларининг бажариб бериш учун товар хом ашё биржасининг махсус ахборот порталига 28.07.2022 йилдан 04.08.2022 йил кунигача 5 иш кунига эълон жойлаштирилган.

Ушбу эълон бўйича 04.08.2022 йилгача 2 нафар қурилиш соҳасига ихтисослашган корхоналардан таклифлар келиб тушди. Жумладан:

“Tillo tera qurilish montaj” МЧЖ,

“Бинокор Отабек” х/к лар томонидан таклифлар келиб тушган.


Таклифлар бўйича комиссия аъзолари ўрганиб чиқиб 10.08.2022 йил куни баҳоланган ва 2 иш куни мобайнида муҳокамага қўйилган. 13.08.2022 йил кунигача 2 иш куни мобайнида эътирозлар келиб тушмади. ХТБ тасарруфидаги 29-сонли мактаб биносининг жорий таъмирлаш ишлари бўйича қолиб деб топилган “Tillo tera qurilish montaj” МЧЖ билан шартнома имзоланди.

ХТБ мудирининг ўринбосари:



Д.Умурзақов

Фуркат тумани ХТБ бош муҳандиси:



Ж.Юлдашев

Фуркат тумани ХТБ бош ҳисобчиси:



А.Тошқўзиев

Товар моддий қийматликлар бўйича ҳисобчи:

А.Усмонов